

**YOSHLAR TA'LIMI UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA
MAKTAB PSIXOLOGI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINING
AHAMIYATI (9–11-SINF O'QUVCHILARI MISOLIDA)**

Nasriddinova Gulsanam

Jondor tuman 26-maktab psixologи

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta ta'limgizning muhim bo'g'ini bo'lgan 9–11-sinf o'quvchilarini keyingi ta'limgiz bosqichlariga jalb etish jarayonida maktab psixologi hamda ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning o'rni tahlil qilinadi. Psixologik yondashuvlar, oilaviy qo'llab-quvvatlash, motivatsion mexanizmlar, kasbga yo'naltirish, shaxsiy rivojlanish va uzluksiz ta'limgiz tamoyillari asosida amalga oshiriladigan hamkorlik strategiyalarining samaradorligi yoritiladi. Maqolada maktab amaliyoti, kuzatuvlar, intervylar asosida real tavsiyalar va metodik yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Ta'limgiz uzluksizligi, psixologik yordam, ota-onalar bilan hamkorlik, maktab psixologi, 9–11-sinf, kasbga yo'naltirish, motivatsiya, o'quvchi shaxsiyati.

Аннотация: В статье анализируется роль сотрудничества школьных психологов и родителей в процессе включения учащихся 9–11 классов, являющихся важным звеном системы среднего образования, в последующие ступени обучения. Будет подчеркнута эффективность совместных стратегий, основанных на принципах психологических подходов, поддержки семьи, мотивационных механизмов, профориентации, личностного развития и непрерывного образования. В статье предлагаются реалистичные рекомендации и методические подходы, основанные на школьной практике, наблюдениях и интервью.

Ключевые слова: Преемственность образования, психологическое сопровождение, сотрудничество с родителями, школьный психолог, 9–11 классы, профориентация, мотивация, личность ученика.

Abstract: This article analyzes the role of cooperation between school psychologists and parents in the process of involving students of grades 9–11, which is an important part of the secondary education system, in the subsequent stages of education. The effectiveness of cooperation strategies based on the principles of psychological approaches, family support, motivational mechanisms, career guidance, personal development and continuing education is highlighted. The article offers realistic recommendations and methodological approaches based on school practice, observations, interviews.

Keywords: Educational continuity, psychological support, cooperation with parents, school psychologist, grades 9–11, career guidance, motivation, student personality.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida uzlusizlik — har bir bosqichning keyingi bosqich bilan uyg‘unligi, izchilligi va maqsadga muvofiqligi bilan ta’milnadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘rtalik muktabdan keyingi bosqichga o‘tishi jarayonida ularning kasb tanlashi, motivatsiyasi, psixologik tayyorgarligi muhim omillardan biridir. 9–11-sinflarda o‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi, maqsadli hayotiy yo‘nalishini tanlashi, mustaqil fikrlashi shakllana boshlaydi.

Shu bosqichda maktab psixologgi va ota-onalar o‘rtasidagi konstruktiv, tizimli va individual yondashuvlarga asoslangan hamkorlik ta’limiy muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanadi. Ushbu maqolada ana shu hamkorlikning zarurati, samaradorligi va amaliy usullariga ilmiy-amaliy nuqtai nazardan yondashiladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan islohotlar uzlusiz va sifatlari ta’limni ta’milashga qaratilgan. Ayniqsa, o‘rtalik ta’limning yuqori bosqichida – 9–11-sinflarda o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichiga yo‘naltirilishi muhim masala bo‘lib qolmoqda. Bu davrda o‘quvchilarda hayotiy tanlovlarni amalga oshirish, kasb tanlash, mustaqil fikrlash, ijtimoiylashuv kabi jarayonlar boshlanganligi sababli ularga kompleks yondashuv zarur. Ushbu bosqichda maktab psixologgi hamda ota-onalar o‘rtasidagi konstruktiv hamkorlik o‘quvchining shaxsiy va ta’limiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maktab psixologgi va ota-onalarning o‘zaro muloqotga kirishgan holda farzandining psixologik holati, qiziqishlari, imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, uni qo‘llab-quvvatlashi yoshlar ta’limining uzlusizligini ta’milashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Maktab psixologgi bu jarayonda o‘quvchi shaxsining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, uning ijtimoiy muhitga moslashuvi, ta’limga bo‘lgan munosabati, stress darajasi, motivatsiyasi kabi jihatlarni tahlil qilib boradi. Ayniqsa, 9–11-sinflar o‘quvchilari rivojlanishida kuzatiladigan o‘ziga xosliklar – emotsiyonal o‘zgaruvchanlik, mustaqillikka intilish, do’stlar ta’siriga moyillik, o‘zini jamiyatda namoyon qilish istagi maktab psixologini doimiy kuzatuv, diagnostika va maslahatlar orqali harakat qilishga majbur etadi. Bu esa ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirilmasa, yetarli samara bermasligi mumkin. Ota-onalar o‘z farzandining ichki holatini anglash, uni ma’naviy-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, noto‘g‘ri tanlovlardan yoki stress holatlarini kamaytirish uchun psixolog bilan birga ishlashi kerak.

Psixologning roli shundaki, u nafaqat o‘quvchini, balki ota-onalarni ham farzandining shaxsiy rivojiga oid dolzarb masalalarda ogoh qilishi, kerak bo‘lsa, treninglar va maslahatlar orqali ularning pedagogik madaniyatini oshirishi lozim. Ayniqsa, kasb tanlash masalasida ota-onalarning nuqtai nazari farzandiga majburiy qaror sifatida singdirilmasligi, aksincha o‘zaro hurmat, tinglash va yo‘llash orqali ijobjiy kayfiyatda amalga oshirilishi kerak. Bunday yondashuv o‘quvchining o‘ziga ishonchini oshiradi, ularni kelajak hayotiga ongli ravishda tayyorlaydi.

Bundan tashqari, maktabda o‘quvchi, ota-onasi va psixolog ishtirokida uch tomonlama uchrashuvlar, maslahatlardagi ishtirok, kasbga yo‘naltirish seminarlarini tashkil etish, ota-onalar uchun psixologik-pedagogik o‘quvlar, davra suhbatlari o‘tkazish orqali samarali aloqa o‘rnatalishi mumkin. Shu tarzda olib borilgan tadbirlar orqali o‘quvchilarda motivatsiya, mas’uliyat, o‘z imkoniyatlarini anglashga bo‘lgan intilish oshadi. Masalan, psixologik diagnostika asosida o‘tkazilgan "Holland kasbiy yo‘nalish testi" orqali o‘quvchilarning qiziqish sohalari aniqlanib, unga mos ta’lim yo‘nalishlari tavsiya etilishi mumkin. Bu esa noto‘g‘ri tanlov ehtimolini kamaytiradi, keyingi bosqichda muvaffaqiyatsizliklarning oldini oladi.

Ta’lim uzluksizligini ta’minlashda eng muhim jihat – bu o‘quvchining o‘z shaxsiy maqsadlarini belgilab olishi, unga erishishda doimiy rag‘bat va yo‘l-yo‘riqqa ega bo‘lishidir. Afsuski, amaliyotda ba’zi holatlarda ota-onalar maktab psixologiga yetarli ishonch bildirmasligi, o‘z farzandining ichki kechinmalariga e’tiborsiz bo‘lishi, faqat baho yoki natija ortidan quvishi oqibatida o‘quvchining ruhiy zo‘riqish, asabiylik, motivatsiya yo‘qolishi, umidsizlik kabi holatlari kuzatiladi. Shu sababli psixologning asosiy vazifasi – ota-onani farzandiga do‘stona yondashishga, uni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida qabul qilishga, qarorlarini qadrlashga o‘rgatishdir. Maktabning metodik xizmati bilan birgalikda bu borada aniq tavsiyalar, yo‘riqnomalar va seminarlar ishlab chiqilishi muhim.

Psixolog va ota-onalar hamkorligining samarasi natijaviy ko‘rsatkichlarda ham namoyon bo‘ladi. Amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, psixologik yordam olgan va ota-onasi faol bo‘lgan o‘quvchilarning 80 foizdan ortig‘i keyingi ta’lim bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tgan, kasbiy tanlovdan afsuslanmagan va o‘z maqsadlariga sodiq qolgan. Aksincha, oilaviy befarqlik yoki noto‘g‘ri bosim natijasida qabul qilingan qarorlar yoshlarni o‘qishni tashlash, kasbini o‘zgartirish, depressiv holatlarga tushish holatlariga olib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi shaxsining shakllanishi, rivojlanishi, kelajakdagi hayotiy yo‘lini belgilab olishida maktab psixologini va ota-onalar o‘rtasidagi sog‘lom, ochiq va tizimli muloqot hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta’lim uzluksizligini

ta'minlashda faqatgina dars jarayonlari emas, balki shaxsga qaratilgan individual yondashuvlar, psixologik maslahatlar, oilaviy ishtirok ham muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham barcha ta'lim muassasalari, maktab rahbariyati, psixologik xizmat va ota-onalar bu boradagi o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirib borishlari lozim. Faqat shundagina yoshlar o'z yo'lini to'g'ri tanlaydi, ta'limda davomiylik, jamiyatda esa barkamol shaxslar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4936-son qarori, 2020-yil 29-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, yangi tahrir, 2021-yil.
3. Leong, F. T. L. "Career Development and Counseling." Wiley & Sons, 2008.
4. Holland, J. L. "Making Vocational Choices." Psychological Assessment Resources, 1997.
5. Shirinova M. Sh. "Maktab psixologiyasi asoslari." Toshkent: O'qituvchi, 2022.
6. Bozorov A. "Ta'limda oilaning roli." Ma'rifat, 2021, №2.
7. UNESCO. "Guidelines on Career Counseling." Paris, 2018.